



MAMLAKATIMIZDA MAHALLIY TIZIMLI AHAMIYATGA MOLIK BANKLARNI (DSIB) ANIQLASH MEZONLARI VA ULARNING STATISTIK TAHLILI

Zilolaxon Kasimova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

"Ekonometrika" kafedrasi o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston. Email: kasimovazilolaxon000@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7597-6600

Shodiyor Toxirov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

"Ekonometrika" kafedrasi o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston. Email: shodiyordemo@gmail.com

ORCID: 0009-0005-4343-3687

CRITERIA FOR DETERMINING DOMESTIC SYSTEMICALLY IMPORTANT BANKS (DSIB) IN OUR COUNTRY AND THEIR STATISTICAL ANALYSIS

Zilolakhon Kasimova

Tashkent State Economic University

Lecturer of the department of Econometrics

Tashkent, Uzbekiston. Email: kasimovazilolaxon000@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7597-6600

Shodiyor Tokhirov

Tashkent State Economic University

Lecturer of the department of Econometrics

Tashkent, Uzbekiston. Email: shodiyordemo@gmail.com

ORCID: 0009-0005-4343-3687

JEL Classification: G1, G18, G21

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalariga tayangan holda, mahalliy miqyosda tizimli ahmiyatga molik banklar (D-SIB)ni aniqlash va ularni tartibga solish masalalari ko'rib chiqilgan. Ushbu banklarning faoliyati iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy tizim xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, ularning inqirozi butun bank tizimi yoki real sektor faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun

maxsus nazorat mexanizmlarini joriy etish zaruriyati asoslab beriladi. Maqolada O'zbekiston bank tizimining hozirgi holati, DSIBlar ulushi, ularning moliyaviy ko'rsatkichlari, daromad va rentabellik tahlili asosida baholangan. Shuningdek, DSIBlarni aniqlashda qo'llaniladigan mezonlar va baholash metodologiyasi (aktivlar hajmi, tizim ichidagi bog'liqlik, qamrov, operatsiyalar murakkabligi kabi ko'rsatkichlar asosida) chuqur tahlil qilingan. Maqola yakunida O'zbekiston sharoitida DSIBlar uchun

qo'shimcha kapital talablarini joriy etish zarurligi, ular uchun ehtiyyot buferlari orqali barqarorlikni ta'minlash, tavakkalchiliklarni kamaytirish va moliyaviy tizimga potensial tahdidlarni minimallashtirish bo'yicha takliflar bildirilgan.

Abstract: This article examines the issues of identifying and regulating systemically important banks (D-SIB) at the local level, based on the recommendations of the Basel Committee on Banking Supervision. Since the activities of these banks can directly affect economic stability and the security of the financial system, the need to introduce special control mechanisms is substantiated so that their crisis does not negatively affect the entire banking system or the real sector. The article analyzes the current state of the banking system of Uzbekistan, the share of SIBs, their financial indicators, income and profitability. Also, the criteria and assessment methodology used in determining DSIBs (based on indicators such as asset volume, intra-system connectivity, coverage, and operational complexity) have been thoroughly studied. At the end of the article, proposals are presented on the need to introduce additional capital requirements for SIBs in the conditions of Uzbekistan, ensuring their stability through reserves, reducing risks, and minimizing potential threats to the financial system.

Tayanch so'zlar: bank tizimi, balans, tizimli ahamiyatga molik mahalliy banklar, moliyaviy institutlar, bank xizmatlari, kapital buferi.

Keywords: banking system, balance sheet, domestic systemically important banks, financial institutions, banking services, capital buffer.

Kirish. O'zbekiston bank tizimida 2025-yil 1-may holatiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro'yxatga olingan tijorat banklari soni 36 tani tashkil etib, shundan, davlat ulushi mavjud banklar 9 ta, qolgan mulk shaklida 27 ta bank faoliyat olib bormoqda. 2025-yil 1-may holatiga tijorat banklarining jami aktivlari 829,8 trln.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (670,5 trln.so'm) 23,8 foiz yoki 159,3 trln.so'mga o'sgan. Bank tizimi bo'yicha tijorat banklari kapitali 121,6 trln.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,9 foiz yoki 20,2 trln. so'mga oshgan. Banklarning kredit qo'yilmalari 565,6 trln.so'mni tashkil etgan va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82,0 trln. so'm yoki 17,0 foizga o'sgan. Banklarning jalb qilgan depozitlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,4 foiz yoki 90,6 trln.so'mga oshgan va 339,2 trln. so'mni tashkil etdi.¹

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z faoliyatining maqsadlaridan biri bo'lgan bank tizimining barqarorligini ta'minlash², tizimli xatarlarni baholash va ularni oldini olish maqsadida tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlaydi. Markaziy bank tomonidan tizimli ahamiyatga molik banklar "Tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan belgilanadi³. Ushbu nizomni shakllantirishda Bank nazorati bo'yicha Bazel

¹ O'zR Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida keltirildi, "Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2025-yil 1-may holatiga (banklar kesimida) ma'lumot"

<https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2470491/>

² O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'RQ-582-sonli Qonuni.

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 18-fevraldagagi 4/13-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

qo'mitasining "Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlashning hadli shartlari to'g'risida"gi yo'riqnomasi⁴, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekiston bank tizimining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan.

Bank tizimining barqarorligi qaysi bankning faoliyatiga bog'liq bo'lsa, o'sha bank tizimli ahamiyatga molik bank hisoblanadi⁵. Tizimli ahamiyatga molik bankning tanazzulga uchrashi tizimli xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu tizimli xatarlar oqibatida bank tizimining butun yoki ayrim qismlari izdan chiqishi va natijada real iqtisodiyot uchun salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin.

Material va metod. Xorijiy ilmiy tadqiqotchilar D-SIB'lar (Domestic Systemically Important Banks) bo'yicha bir qancha chuqur izlanishlar olib borishgan. Masalan, Gupta, C. P., & Jain, A. tomonidan "Study of Banks' Systemic Importance and Moral Hazard Behaviour" maqolasida Hindiston bank tizimida banklarning kredit berish xatti-harakatlari axloqiy xavf ko'rsatishi mumkinligi tekshiriladi, bunda tizimli ahamiyatga ega banklar o'zlarining moliyaviy ahvoldan qat'i nazar, xavfli kreditlash bilan shug'ullanishlari aniqlandi. Aksincha, eng kam ahamiyatga ega banklar uchun teskari natijalar kuzatildi.

Alzoubi, M., Alsmadi, A. A., & kasasbeh, H. muallifligi ostidagi "Systemically Important Bank: A Bibliometric Analysis for the Period of 2002 to 2022" nomli maqolada esa keltirilgan davr mobaynidagi bibliometrik metodologiya tahlil qilinib, SIBlarning intellektual tuzilishining hozirgi holati va yangi tendensiyalarni taqdim etiladi.

Salim, M. Z., & Daly, K. tomonidan bayon etilgan "Modelling Systemically Important Banks vis-à-vis the Basel Prudential Guidelines" maqolada Indoneziyaning tizimli ahamiyatga ega banklari (SIB) nazariy yondashuvlar - CoVaR, marjinal kutilgan zararlar (MES) va SRISK yordamida o'rganilib, Bazel ko'rsatmalariga taqqoslanadi.

Bucket modeli: Hindiston, Xitoy, Avstraliya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli tatbiq qilingan bo'lib, banklar ballar asosida kategoriyalar (bucket)ga bo'linadi va har bir bucket uchun qo'shimcha CET1 kapital talablari belgilanadi (odatda +0.2–1.0%).

Biroq mamlakatimiz olimlari tomonidan D-SIB'larni aniqlash va baholash bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Ilmiy maqolani tayyorlashda bir nechta tadqiqot metodologiyalari va usullari tanlab olindi. Jumladan, umummantiqiy (induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, analogiya, umumlashtirish) va xususiy-ilmiy (taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-matematik) metodlardan foydalанилди.

Munozara. Tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlashda 4 ta mezondan foydalilanildi:

- bankning hajmi;
- bankning bank tizimi ishtirokchilari bilan o'zaro bog'liqligi;
- bankning qamrovi;
- bank operatsiyalari murakkabligi.

Tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlashda ushu mezonlar bo'yicha 9 ta umumlashtirilgan ko'rsatkichlar hamda ularga tegishli vaznlardan foydalilanildi.

⁴ BCBS. (2012, October). A framework for dealing with domestic systemically important banks.

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni.

Barcha ko'rsatkichlar quyidagi formula orqali standartlashtirilib, [0; 1] shkalaga o'tkaziladi:

$$K'_i = \frac{K_{ij} - \text{Min}(K_i)}{\text{Max}(K_i) - \text{Min}(K_i)} \quad (1)$$

bunda: K'_i – i -sonli K -ko'rsatkichning

standartlashtirilgan qiymati;
 K_{ij} – j -bankning K_i -ko'rsatkichi haqiqiy qiymati;
 $\text{Min}(K_i)$ va $\text{Max}(K_i)$ – banklar bo'yicha minimal va maksimal qiymatlari.

1-jadval

Tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar va ularning vaznlari

| Mezon | Ko'rsatkichlar | Vazn | Umumlashtirilgan vazn |
|--------------------------|---|------|-----------------------|
| Hajm | Aktivlar va balansdan tashqari majburiyatlar | 30% | 30% |
| O'zaro bog'liqlik | Boshqa banklarda joylashtirilgan aktivlar | 8% | 23% |
| | Boshqa banklar oldidagi majburiyatlar | 15% | |
| Qamrov | Mahalliy to'lovlar va o'tkazmalar | 4% | 37% |
| | Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida kredit portfeli | 4% | |
| | Jismoniy shaxslarning omonatlari | 15% | |
| | Yuridik shaxslarning omonatlari | 7% | |
| | Bankning xizmat ko'rsatish nuqtalari | 7% | |
| Murakkablik | Transchegaraviy majburiyatlar | 10% | 10% |

$\text{Min}(K_i)$ va $\text{Max}(K_i)$ – banklar bo'yicha minimal va maksimal qiymatlari.

Standartlashtirilgan ko'rsatkichlar tegishli vazn omillariga ko'paytirilib, so'ngra ularning yig'indisini hisoblash orqali ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan natijasi quyidagi formula orqali topiladi:

$$X = \sum_{i=1}^9 V_i * K'_i \quad (2)$$

bunda: X – ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan natijasi;

V_i – i -sonli K -ko'rsatkichning vazni.

Har bir chorak yakunida banklarning tizimli ahamiyatga molikligi bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Bankning

umumlashtirilgan natijasi barcha banklarning o'rtacha umumlashtirilgan natijasi hamda bitta standart chetlanish (o'rtacha kvadratik tafovut - standard deviation) yig'indisidan yuqori bo'lsa, mazkur bank chorak yakuni bo'yicha tizimli ahamiyatga molik deb topiladi. Markaziy bank tomonidan tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash yilda bir marta amalga oshiriladi hamda kelgusi yil uchun tizimli ahamiyatga molik deb belgilanadi. Moliyaviy barqarorlik departamenti oxirgi ketma-ket to'rt chorak yakuni bo'yicha hisob-kitob natijalarini hisobot yilining 1 noyabriga qadar Markaziy bankning Bank nazorati qo'mitasi muhokamasiga kiritadi.

Bank nazorati qo'mitasi hisob-kitoblar hamda asoslantirilgan mulohaza asosida

kelgusi yil uchun tizimli ahamiyatga molik banklarni belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023-yil 18-fevraldaggi 4/13-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash

tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan 2025-yil uchun tizimli ahamiyatga molik banklar ro‘yxatini tasdiqlagan, ular quyidagilardan iborat:

2-jadval

Tizimli ahamiyatga molik banklarning 2025-yil 1-may holatidagi balans ko‘rsatkichlari (mlrd.so‘m)

| Banklar | Aktivlar | Jamiga nisbatan ulushi, % | Majburiyatlar | Jamiga nisbatan ulushi, % | Kapitallar | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|-------------------------------|----------------|---------------------------|----------------|---------------------------|----------------|---------------------------|
| Jami (bank tizimi) | 829 768 | 100,0 | 708 139 | 100,0 | 121 629 | 100,0 |
| 1. “O‘zmilliybank” AJ | 142 543 | 17,2 | 123 153 | 17,4 | 19 390 | 15,9 |
| 2. “Agrobank” ATB | 95 150 | 11,5 | 84 623 | 12,0 | 10 528 | 8,7 |
| 3.“O‘zsanoatqurilishbank” ATB | 87 931 | 10,6 | 74 232 | 10,5 | 13 699 | 11,3 |
| 4. AT “Xalq banki” | 64 299 | 7,7 | 56 253 | 7,9 | 8 045 | 6,6 |
| 5. “Ipoteka-bank” ATIB | 51 113 | 6,2 | 43 899 | 6,2 | 7 214 | 5,9 |
| 6. “Kapitalbank” ATB | 48 009 | 5,8 | 42 347 | 6,0 | 5 662 | 4,7 |
| 7. “Asakabank” AJ. | 47 827 | 5,8 | 39 084 | 5,5 | 8 744 | 7,2 |
| Jami (tizimli) | 536 873 | 64,7 | 463 591 | 65,5 | 73 282 | 60,3 |

2025 yilning 1-may bolati bo‘yicha O‘zbekiston bank tizimida jami 36 ta bank mavjud bo‘lib, shularning 9 tasi davlat ulushiga ega, qolgan 27 tasi esa boshqa mulkchilik shakliga egadir. 2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra aytish mumkinki, respublika banklar aktivlarining deyarli 65 foizi aynan tizimli ahamiyatga molik banklar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu nisbatni majburiyatlar va kapital

miqyosida oladigan bo‘lsak, mos ravishda 65,5 foiz va 60,3 foizni tashkil qiladi. Tizimli ahamiyatga molik banklar ichida “O‘zmilliybank” AJ eng katta ta’sir kuchiga ega bo‘lib, u eng ko‘p foyda olgan TOP-10 bank bo‘yicha ham yetakchilik qilmoqda (2025 yil birinchi chorak yakunida 467,9 mlrd so‘m foyda qayd etilgan).⁶

⁶ Биринчи чоракда энг кўп фойда олган ТОП-10 банк

3-jadval

**Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari
(mlrd.so'm)**

| Bank tizimi daromad va xarajatlari | Hisobot davri | | Mutloq o'zgarish (+;-) | Nisbiy o'zgarish (%) |
|--|---------------|---------------|------------------------|----------------------|
| | 01.05.2024 | 01.05.2025 | | |
| Foizli daromadlar | 34 558 | 39 020 | 4 461 | 112,9 |
| Foizli xarajatlar | 24 074 | 27 217 | 3 143 | 113,1 |
| Foizli marja | 10 484 | 11 803 | 1 319 | 112,6 |
| Foizsiz daromadlar | 16 533 | 21 685 | 5 152 | 131,2 |
| Foizsiz xarajatlar | 5 205 | 7 158 | 1 953 | 137,5 |
| Operatsion xarajatlar | 6 655 | 8 495 | 1 840 | 127,6 |
| Foizsiz daromad (zarar) | 4 673 | 6 032 | 1 359 | 129,1 |
| Kredit va lizing bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash | 8 704 | 9 817 | 1 113 | 112,8 |
| Boshqa aktivlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash | 2 498 | 2 755 | 257 | 110,3 |
| Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar) | 3 955 | 5 263 | 1 308 | 133,1 |
| Foyda solig'ini to'lash xarajatlari | 929 | 953 | 24 | 102,6 |
| Sof foyda (zarar) | 3 025 | 4 309 | 1 284 | 142,4 |
| Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA) | 1,8 | 2,0 | | |
| Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE) | 9,1 | 10,9 | | |

3-jadvaldan ma'lum bo'lganidek, 2025 yil 1-may holatiga ko'ra, mamlakatimiz bank tizimining sof foydasi 4 309,0 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 284,0 mlrd.so'mga yoki qo'shimcha 42,4 foizga ko'pdir. Daromadlar tarkibida foizli marja qiymati foizsiz daromadlarga nisbatan katta hajmni tashkil qilsada, mutloq o'zgarish bo'yicha foizsiz daromadlar ustunlik qilmoqda. Ta'kidlash joizki, bank tizimi daromadlik ko'rsatkichlari bo'yicha ham ijobiy farqqa erishilgan. Ya'ni, ROA (Return on Assets) va ROE (Return on Equity) ko'rsatkichlarining nisbatan yaxshilanishi kuzatilgan. ROA – bankning har bir 1 so'mlik aktivi qancha foyda

keltirayotganini ko'rsatadi. ROA ko'rsatkichi 1,8 foizdan 2,0 foizga ko'tarilgan. Bu banklar o'z aktivlaridan (asosiy faoliyat – kredit, investitsiya, foizli aktivlar) ko'proq daromad olishni boshlaganini bildiradi. ROE – bank aktsiyadorlarining kiritgan sarmoyasiga nisbatan olinayotgan foyda. ROE ko'rsatkichi bo'yicha 9,1 foizdan 10,9 foizga ko'tarilgan. Bu banklar faoliyatini xavfsizroq va foydaliroq yuritayotganini, resurslardan (xususan, kreditlar va investitsion aktivlar) foydalanish samarasi oshganligini bildiradi. Albatta, bunda tizimli ahamiyatga molik banklar (DSIB'lar) hissasi katta. Banklar aksariyat hollarda kapital qo'shmasdan yuqori foyda ko'rsatgan, bu esa rentabellikni oshirgan. Dividend siyosati

ehtiyyotkor bo‘lgani sababli, kapital yetarligi saqlanib qolgan.

Xulosa. Garchi xalqaro tizimli ahamiyatga molik banklar (G-SIBs) bo‘yicha aniq choralar ko‘rilgan bo‘lsa ham, ko‘pgina mamlakatlarda mahalliy miqyosda ham moliyaviy tizimga ta’sir ko‘rsatadigan banklar mavjud. Shuning uchun, milliy tartibga soluvchilar o‘z tizimidagi D-SIB larni aniqlash

va ularga nisbatan ehtiyot choralarini kuchaytirishlari kerak. D-SIB bo‘lgan banklar uchun qo‘srimcha kapital buferi talab qilinadi. Bu bufer moliyaviy inqirozlar vaqtida bankning “o‘zini o‘zi qoplash qobiliyatini” oshirishga qaratilgan. Basel bu qo‘srimcha kapitalni 1% gacha (Tier 1 kapital asosida) joriy qilishni tavsiya qiladi, lekin bu daraja milliy regulyator tomonidan aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘RQ-582-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-580-sonli Qonuni.
3. BCBS. (2012, October). A framework for dealing with domestic systemically important banks.
4. 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PQ-1438-son Qaror.
5. 2015 yil 6 iyuldagagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2693-sonli Nizom.
6. 2015 yil 13 avgustdagagi “Tijorat banklarining likvidlilagini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2709-sonli Nizom.
7. 2015 yil 14 iyuldagagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2696-sonli Nizom.
8. Gupta, C. P., & Jain, A. (2022). A Study of Banks’ Systemic Importance and Moral Hazard Behaviour: A Panel Threshold Regression Approach. *Journal of Risk and Financial Management*, 15(11), 537. <https://doi.org/10.3390/jrfm15110537>
9. Alzoubi, M., Alsmadi, A. A., & kasasbeh, H. (2022). Systemically Important Bank: A Bibliometric Analysis for the Period of 2002 to 2022. *SAGE Open*, 12(4). <https://doi.org/10.1177/21582440221141259>
10. Salim, M. Z., & Daly, K. (2021). Modelling Systemically Important Banks vis-à-vis the Basel Prudential Guidelines. *Journal of Risk and Financial Management*, 14(7), 295. <https://doi.org/10.3390/jrfm14070295>